

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH: BARQAROR TARAQQIYOTNING RIVOJLANISH KALITI

Begaliyeva Mohinur Mirzohid qizi

Andijon viloyati Asaka tumani 34-IDUM amaliyotchi psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15716057>

Annotatsiya. *O'quvchilarda kasbiy ongini shakllantirish, mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kasb-hunarga yo'naltirishning ahamiyati yoritilib beriladi. Bu maqola o'quvchilar bilan kasb-hunarga yo'naltirishning yangi shakllari, usullari va vositalarini samarali tashkil etish yo'llari haqida ma'lumot beradi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongini ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati va jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishishlariga ko'maklashishdir.*

Kalit so'zlar: *Kasb-hunarga yo'naltirish, kasb tanlash, ilg'or texnologiyalar, onlayn platformalar.*

Bugungi kunda O'zbekistonda bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo'yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo'lib hisoblanadi. Barqaror taraqqiyot deganda, hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini ta'minlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan muvozanatli rivojlanish tushuniladi. Kasb-hunarga yo'naltirish aynan shu omillarni inobatga olgan holda amalga oshirilsa, u barqaror taraqqiyotga bevosita xizmat qiladi.

Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki umrining asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir. Bu qarorni to'g'ri qabul qilish uchun o'quvchi o'zini anglashi, ichki dunyosi, qiziqishlari, ijtimoiy muhiti, salomatligi to'g'ri kelishi va real imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi kerak. Shuning uchun bunday ma'suliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo'llash kerak.

Kasbga yo'naltirish psixologiyasi bo'yicha mutaxassis Azizxon Bahodirov bu borada shunday tavsiyalar bergan. "O'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olishingiz mumkin. Faqatgina bunda onlayn platformalarda duch kelgan testga emas, soha mutaxassislari ishlab chiqqan professional testlarga tayanish kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga "hukm" deb qarash kerak emas. Ular faqatgina moyillik yo'nalishini belgilab beradi".

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash-ularni kasb tanlashida ongini qaror qabul qilishga, amaliy ko'nikma va qiziqishlarini aniqlashga, zamonaviy mehnat bozoriga tayyor bo'lishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda foydalanilayotgan ilg'or texnologiyalarga quyidagilar misol bo'la oladi.

1. Raqamli kasbiy diagnostika platformalari

O'quvchilar qiziqishi, qobiliyati va psixotipiga qarab kasblarni aniqlashda onlayn testlar, so'rovnomalar va algoritmik tahlil tizimlaridan foydalaniladi.

-MyFuture, Truity, 123test, ProfOrientator kabi platformalar orqali kasbiy yo'nalish aniqlanadi.

2.Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari

O'quvchilar VR ko'zoynaklar yordamida turli kasblarning ish muhitini virtual tarzda ko'rib, amaliyotga yaqin tajriba oltirishadi. Masalan, virtual muhandislik laboratoriyalari, jarrohlik amaliyotlari yoki sanoat liniyalarida ishlash modullari.

3.Simulyatorlar va interaktiv mashg'ulotlar

Mashinasozlik, elektrotexnika, tibbiyot, kimyo, qurilish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha interaktiv simulyatsiya dasturlari orqali o'quvchilar ish jarayonini mashq qilishi mumkin. 3D modellash, robotexnika va avtomatlashtirgan boshqaruv tizimlari asosida o'qitish.

4.Onlayn kasbiy yo'naltirish platformalari va vebinarlar

Coursera, Udemy, EdX, Udacity, inLearning, Duolingo, Memrise, Skill share, TEDed, mindvalley, Alison, Khan Academy, Qizlar akademiyasi, O'zbekiston oshpazlar uyushmasining pazandachilik kurslari, Monomarkaz, Programmer uz, Dasturchilar orqali o'quvchilar turli yo'nalishlarda bepul yoki arzon narxlarda bilim olishadi.

Kasblar haqidagi vebinarlar, ekspertlar bilan jonli e'firlar orqali real tajriba almashinuvi o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirishga yordam beradi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog hodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha respublikamizda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi" tashkil etilgan. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o'quvchilarning o'z qiziqishlari qobiliyatlari va sog'ligiga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillariga mo'jallangan taraqqiyot strategiyasida umumta'lim maktablari kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarning davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Ana shu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'quvchilarning muayyan kasb o'rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiyot barqarorligi, barcha sohalarida rivojlanagan davlatlar bilan bellasha olish ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Bunday kadrlar esa avvalo maktabda kamol topadi va shakllanadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan birga ular tanlayotgan sohaga layoqati qay darajada muvofiqligini aniqlash, bu borada fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy na'munasi va hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi. Zero, to'g'ri va maqsadli kasb-hunarga yo'naltirilgan o'quvchi o'zi uchun shaxsiy rivojlanish poydevorini yaratadi va hayot yo'lini belgilaydi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradi, o'ziga ishonch, ma'suliyat hissi ortadi, hayotga mehnatga tez moslashadi. Rivojlangan iqtisodiyotda kasb egalariga ehtiyoj katta - bu ijtimoiy barqarorlik omili hisoblanadi. Kasb-hunar egallagan yoshlar ichki va tashqi mehnat bozorida o'z o'rnini topadi, ishsizlar soni kamayadi, natijada migratsiya ehtiyoji pasayadi. Har bir hunar egasi - bu millatimiz ustunidir. "Hunar-hunardan riziqing unar" deydi dono xalqimiz.

O'quvchi maktabni tamomlagach, uni to'g'ri yo'naltirish, so'ng talab yuqori bo'lgan kasb egasi bo'lishiga ko'maklashish uning kelgusi hayotida juda muhim ahamiyatga ega.

Prizidentimiz boshchiligida yoshlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishlari uchun otalarcha g'amxo'rlik qilmoqda.

Maqsad ezgu va yagona-Yangi O'zbekiston farzandlari hayot bilan hamnafas, shijoatli, bilimga chanqoq, halol va hayotga teran nigoh bilan boqa oladigan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan insonlar bo'lib tarbiya topishiga erishishdir. Mehnatkash yoshlar to'g'ri fikr, ilg'or va keng dunyoqarash bilan mamalakatni faol rivojlantiruvchi drayverga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Tashxis markazi "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" o'quv qo'llanmasi
2. A.M.Mirzakarimov, Y.N.Abdug'afforova "Kasbga yo'naltirishning zamonaviy usullari". PEDAGOGS international research journal 140-145 b.
3. "Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi" ning Maktab bitiruvchilarining ishga joylashish imkoniyatlari bo'yicha qo'llanma